

## TUHMATCHILAR JAZOSI (Xorazm vohasi ertaklari)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonlarda bir yigit bor ekan, uning aqlli, xushro‘y bir xotini bor ekan. Yigit mardikorchilik, hammollik qilib yurar ekan, xotini bo‘z to‘qir ekan, shu yo‘l bilan uy ro‘zg‘orlarini tebratar ekanlar. Xotin chiroyli bo‘lganligidan shaharda unga xushtor bo‘lganlar ko‘p ekan. O‘z maqsadlariga yetolmay yurgan xushtorlar er-xotinning oralariga sovuqlig tushirish, bir-birlaridan ajratish uchun ming xil gap to‘qib, g‘iybat tarqatib yurar ekanlar, ularning ustiga tuhmat yog‘dirar ekanlar. Yigitni uchratganlarida ular: «Xotining falon-falonlar bilan undoq ish qildi, mundoq ish qildi, falon kishini jazman tutgan, shunday yaramas buzuq xotinni nega haydab yubormaysan», — der ekanlar. Xotinni uchratganda: «Ering falon xotin bilan borish-kelish qiladi, sendan boshqa yana ikkita xotin bilan yashar edi, bu erni tashla!» — deb gapirar ekanlar. Er-xotin kech-qurunlari bo‘lgan-eshitgan gaplarni bir-birlariga aytib, goh kulishib, goh xafa bo‘lishib o‘tirar ekanlar.

Mish-mish gaplar haddan tashqari ko‘payibdi. Hatto g‘iybatchilardan uchta-to‘rttasi bir kun yigitni ushlab olib, bir-birlariga yolg‘ondan guvoh bo‘lib, uning xotiniga bo‘htonlar ortibdilar, toza yomonlabdilar: «Kuppa-kunduz kuni xotining bir yigitni uyingga olib kirib ketdi», — deb toza aljirabdilar. Yigit xafa bo‘lib uyiga kelibdi. Xotiniga: «Xotin, men bu shaharda boshimni ko‘tarib yurgudek holim qolmadi, endi boshqa yurtga ko‘chib ketmasak bo‘lmaydi», — debdi. Xotini aytibdi: «Mayli, ko‘chib ketsak ketaylik, shu yaramas tuhmatchilarning balosidan qutulaylik. Lekin bizga shuncha tuhmat qilgan yaramaslar jazosiz qolaveradimi, ularning yaxshilab adabini bermay turib, hech qayoqqa ketmaymiz», - debdi. «Xo‘s, nima qilmoqchisan», — deb so‘rabdi yigit. «Agar siz rozi bo‘lsangiz, bir gap aytaman», — debdi xotini. Eri ko‘nibdi. «Shirin oshimizga zahar solmoqchi bo‘lgan yaramaslarni men bir-bir uyga chaqiraman, ularga: Bugun erim uyda yo‘q, biznikiga mehmon bo‘lib kelng, deyman. Ular kelganda, birgalashib jazosini beramiz», — debdi xotini. Ikkalasi reja tuzib, maslahatni bir joyga qo‘yishibdi.

Ertasi kuni xotin bozorga boribdi. Bozorda xotinboz bir qassob bor ekan. Xotin qassobning oldiga borib: «Menga ikki qadoq go‘sht bering» — debdi-da, yuzini ochib, qassobga kulib qarabdi. Qassob shoshib qolibdi, shoshganidan qo‘lini ham kesib olibdi. Xotin go‘shtni olib endi ketmoqchi bo‘lgan ekan, qassob: «Jonim, bu go‘shtni qaysi baxtli odamga pishirib berasiz?» — deb so‘rabdi. Xotin: «Biror mehmon kelib qolsa, o‘sanga pishirib beraman», — debdi. «Bo‘lmasa, o‘sha mehmoningiz men bo‘la qolay?» - debdi qassob. «Jonim bilan, kun botganida kelng, erim yovonga ketgan», - debdi xotin. Qassob suyunganidan yana go‘shtdan kesib beribdi, go‘shtning pulini ham so‘ramabdi.

Kun botib, qosh qoraygandan keyin qassob xotinning uyiga boribdi, eshikni qoqibdi, xotin chiqib eshikni ochibdi-da, ochiq chehra bilan uni kutib olibdi. Qassob uyga kirib, kerilib mo‘ylovlarini silab o‘tiraveribdi. Xotin qozonga o‘t yoqib yuboray, deb eshikka chiqibdi-da, kapgirni qozonga taq-taq uribdi. Eri tomning ustida poylab yotgan ekan, darrov pastga tushibdi-da, darvozani taqillatibdi. Darvozaning taqillaganini eshitgan qassob kayfi boshidan uchib ketibdi. «Bu qandoq bo‘ldi», — deb tipirchilab qolibdi. «Erim qishloqdan qaytib kelib qoldi», - debdi xotin. «Endi men nima qilaman?» - deb talvasaga tushibdi qassob. «Siz darrov mana bu eshikning orqasiga engashing, men ustingizga qop yopib qo‘yaman, erim uxlagandan keyin sekin chiqib ketasiz, — debdi. Qassob darrov xotinning aytganini qilibdi. Xotin qassobning ustiga bir eski qopni yopibdi-da, chiqib darvozani ochibdi. Eri hovliga kira solib jahl bilan: «Ovqat qildingmi?» deb o‘shqiribdi. «O‘tin yo‘q ekan, bir oz kechikib qoldim», — debdi xotini. Eri boltani olib: «Mana bu to‘nka yaxshi o‘tin bo‘ladi, hozir yorib tashlayman», — debdi-da, qassob yotgan tomonga yuribdi.

Qassob qarasa — ish chatoq, darrov ustidagi qopni irg‘itib tashlab, dodlaganicha devordan oshib qochibdi. Ust-bosh kiyimlarigacha uyda qolib ketaveribdi. Er-xotin bo‘lgan voqeaga toza kulishibdi.

Ertasi kuni ayol bozorga borib Sulton baqqoldan uch qadoq guruch olibdi. Sulton baqqol ham bu ayolga ishqiboz ekan. Xotin aldab uni ham o‘z uyiga olib kelibdi. Baqqol endi bemalol o‘tirib, ayol bilan suhbatlashaman deb turganda, darvoza taqillab qolibdi. Baqqolning es-pesi chiqib, «endi nima qilaman» deb o‘zini u yoqdan- bu yoqqa uraveribdi. «Mana bu beshikka sizni belab qo‘yaman, ovozingizni chiqarmay yotavering», — debdi. Ayol baqqolni beshikka belab, borib darvozani ochibdi. Eri kelib qarasa, bir beshik turgan emish. «Bu beshik bu yerga qayoqdan keldi?» — deb so‘rabdi eri. «Qo‘shnimizning xotini, men falon yerga borib kelaman, bolamga qarab turing, deb tashlab ketgan edi», — debdi. «Qani men bir ko‘ray-chi, qo‘shnimizning bolasi qanaqa ekan», — deb borib gahvorani ko‘tarib qarasa, ketmon soqol baqqol ko‘zlarini shipillatib yotgan emish. «Iye, bu bolaning soqoli bor ekan-ku, qani ustarani olib kel, bu bachchag‘arning soqolini olib tashlaymiz, — debdi eri. Sulton baqqol irg‘ib o‘rnidan turibdi-da, beshik-meshik bilan o‘rib qochibdi. Er-xotin yana kulishibdi.

Bu ikki xushtor kiyim-boshdan ajralib, uning ustiga sharmanda-yu sharmisor bo‘lishibdi. Bir kuni ikkisi maslahat qilishib, ayolni qoziga chaqirtirishibdi. Qozi ayolni chaqirib so‘roq qilibdi. «Qozipochcha, erim yovonga ketgan edi, ko‘pdan beri xabar yo‘q, ro‘zg‘ordan qiynalib qoldim, jon qozi, rahm qiling», — debdi-da, yuzini ochib, qoziga kulib qarabdi. Qozi ham ayolni ko‘rib, xushtor bo‘lib qolibdi. Ayol: «Qozipochcham, vaqtłari bo‘lsa, bugun biznikiga mehmon bo‘lib borsalar», deb yana suzilib, qiyo boqibdi. Qozi darrov haligi ikki xushtorni chaqirtirib: «Sizlar endi boraveringlar, men o‘zim bu ayolning jazosini beraman, haqingizni undiraman», — debdi. Kech paytida qozipochcha yasanib-tusanib har xil sovg‘a-salom ko‘tarib, xotinnikiga mehmonga boribdi. Qozi endi yechinib, oyoqlarini uzatgan ekan, eshik taqillabdi. Ayol darrov qozining bo‘yniga bo‘yinturuq ilib, boshiga no‘xta uringdi-da, eshak qilib xorosga qo‘shib qo‘yibdi. Keyin borib, darvozani ochibdi. Undan keyin eriga: «Siz eshakni haydab, xorosga qarab turing, xamirim achib qoldi, nonimni yopib olay», — debdi. Eri xorosga kirib eshakni tayoq bilan uraveribdi. Shunda, qozi bo‘ynidagi bo‘ynrfcuruqlari bilan uraveribdi.

Qozipochchaning juda jahli chiqib, qassob bilan Sulton boqqolni o‘z oldiga chaqirtiribdi-da, «Padaringga la’nat badbaxt xotin, aytganlaring rost ekan, meni xorosga qo‘shdi, endi maslahat qilib, u churuk choponlarning jazosini bermasak bo‘lmaydi», - debdi. Ikki xushtor: «Qozipochcha, nima qilsak bo‘ladi?» — deb so‘rashibdi. Shunda qozi: «Men bir narsa o‘ylab qo‘ydim: uchovimiz xotinning uyiga lahm qaziyimiz, keyin uyiga bostirib kirib, sharmandasini chiqaramiz, sizlar mol-dunyolaringni qaytarib olasizlar», — debdi. Uchta muttaham bir joyda uehrashib, tunda lahm qazishga kirishibdi. Lahm tayyor bo‘lgandan keyin, baqqol: «Men oldin kiraman», deb chuqurga tushibdi, Xotin bilan eri gapdan xabardor ekan, baqqolning qulog‘ini shartta kesibdi. Bir ozdan so‘ng Sulton baqqol qulog‘ini ushlab qaytib chiqibdi. Sheriklari: «Nima bo‘ldi?» deb so‘rabdilar. «E-e, u yerda to‘y» karnay-surnay, nog‘ora bazm bo‘layotgan ekan, shulardan qulog‘im bitdi», - debdi, Sulton baqqol. «Bo‘lmasa, men kiray-chi», — deb qassob chuqurga tushibdi. Haligi xotin uning burnini shartta kesib olibdi. Bir ozdan so‘ng u voy-voylab yuzini ushlab chiqibdi. «Ha, nima bo‘ldi?» deb so‘rabdi sheriklari. «E-e, qo‘yavering, u yerda pishirilayotgan nozne’matlarning hidi burnimni yorayozdi», — debdi. Shundan keyin og‘zidan so‘lakayi oqib ketgan qozipochcha: «Men ham bir kirib chiqay-chi», — deb darrov chuqurga tushibdi. Birozdan keyin qozipochcha ham voy-voylab ko‘zini ushlab chiqibdi. Sheriklari: «Ha, qozipochcha sizga nima bo‘ldi — deb so‘rashibdi. Shunda qozi aftini burishtirib «Be-e,

birodarlar, gapning kattasi bu yoqda ekan, bu karnay-surnaylar, nog‘orabazmu, nozne’matlarni ko‘raverib ko‘zimdan ayrildim», — debdi.

Shunday qilib, er-xotin dushmanlardan qasdlarini olib, tuhmatchilarning jazosini beribdilar.

“Oqila qiz” kitobidan